

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7173,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 833,2 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
• 103,0 %
Hajmning o'sishi
• 833,2 mlrd. so'mga
Xizmatlar hajmi
• 7173,2 mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7173,2	103,0
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	348,9	108,8
Moliyaviy xizmatlar	1402,1	126,1
Transport xizmatlari	1147,5	102,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1096,4</i>	<i>100,9</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	205,4	86,7
Savdo xizmatlari	2766,8	98,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	182,5	86,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	281,5	133,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,9	100,8
Ijara xizmatlari	172,1	94,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	180,5	91,4
Shaxsiy xizmatlar	186,8	90,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	68,7	73,3
Boshqa xizmatlar	145,5	87,2

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 38,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (19,5 %), transport xizmatlari (16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ulush



Eng past ulush




Ta'lim sohasidagi xizmatlarlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 3,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush me'morchilik, muhandislik

Dastlabki ma'lumotlar

izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,0 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,2 %, boshqa xizmatlar 2,0 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarlar (33,2 %), moliyaviy xizmatlar (26,1 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,8 %) qayd etildi, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,8 %). Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining osish sur'atlari taqqoslanishi, % da**



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (26,7 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (13,4 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (13,3 % ga), boshqa xizmatlar (12,8 % ga), shaxsiy xizmatlar (9,5 % ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (8,6 % ga), shuningdek, savdo xizmatlari (1,9 % ga) pasayish kuzatildi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 2,9 %.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

**Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi
(2020-yil yanvar-noyabr oylarida)**



2020-yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 34,0 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 66,0 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajida savdo xizmatlarining ulushi 38,6 % ni tashkil etdi, bu esa 2 766,8 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajida savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 82,9 % iga to'g'ri keladi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 402,1 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 1 016,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 385,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 26,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 164,4 % ga yetgan.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik

hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,0 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,6 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,4 % ni tashkil etadi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




2020- yilning yanvar- noyabr oy-larida aloqa va axborotlashtirish xiz-matlarning hajmi 348,9 mldr. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 108,8 % ga yetdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2019- y.
yanvar-noyabr**



**2020- y.
yanvar- noyabr**



Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,2 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,3 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 1,7 % dan tashkil etdi.

2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, telekommunikatsiya xizmatlarining 9,9 % ga yuqori o'sishi kuzatilmoxda.

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 281,5 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 133,2 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 86,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 205,4 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,9 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 14,6 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 86,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 84,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy
ko'rsatkichlari**
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Surxondaryo viloyati *	7173,2	103,0	111,5
Termiz sh.	3348,3	105,2	116,5
tumanlar:			
Oltinsoy	191,4	100,6	106,8
Angor	175,6	100,8	106,5
Bandixon	45,1	101,5	103,4
Boysun	151,3	101,1	105,8
Muzrabot	236,3	100,1	105,3
Denov	1235,6	102,3	110,2
Jarqo'rg'on	238,2	100,1	106,7
Qumqo'rg'on	259,0	100,2	106,9
Qiziriq	182,8	100,9	106,7
Sariosiyo	274,9	100,1	106,7
Termiz	166,8	100,7	106,8
Uzun	195,6	100,9	107,3
Sherobod	221,4	100,4	108,4
Sho'rchi	250,9	100,8	105,3

¹) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz sh. (3348,3 mlrd. so'm), Denov (1235,6 mlrd. so'm), Sarosiyo (274,9 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (259,0 mlrd. so'm) tumahlarda qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2708,7 ming so'mga yetdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 2708,7 ming so'm

O'sish sur'ati % da, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 100,7 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 262,0 ming so'mga

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida)**



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'tasida Termiz shahrida 18 519,4 ming so'mdan Bandixon tumanida 596,3 ming so'm-gacha oralig'ida kuzatiladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Termiz tumanida o'rtacha doimiy aholi soni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 77,6 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 2 149,7 ming so'mni tashkil etdi.

❖ Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

❖ Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
soni - 15 223 birlikda

O'tgan yilning mos
davriga nisbatan
ularning sonini o'sishi -
12 614 birlikda

O'tgan yilning mos
davriga nisbatan
o'sish sur'atlari -
120,7 %

Ularning umumiy
sonidagi ulushi -
60,9 %

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning
1-dekabr holatiga
ko'ra, xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan kor-
xona va tash-
kilotlarning ulushi -
60,9 %, sanoat -
16,1 %, qurilish -
9,9 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 13,1 % ga to'g'ri keldi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (45,0 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.

Savdo – 45,0

Boshqa turdag'i xizmatlar – 34,9

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,4

Tashish va saqlash – 5,4

Axborot va aloqa – 1,9

Sog'liqni saqlash – 2,4

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 5,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 39,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,7 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 39,3 % ni tashkil etgan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 37,4 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,9 mingtaga ko'paydi va 6,8 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 17,0 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,2 mingtaga ko'paydi va 1,6 mingtani tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 75,7 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 71,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 11 517 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 2 534 tani tashkil etdi va o'sishi esa 28,2 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 75,7 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 71,2 % ekvivalentida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga ta'riflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qildi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel: (76) 225-65-91**

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi